

SOLIQ TO'LOVCHILAR TOMONIDAN SOLIQ MAJBURIYATLARINING IXTIYORIY BAJARILISHIDA MARKAZIY MA'LUMOTLAR BAZASINING O'RNI

THE ROLE OF THE CENTRAL DATABASE IN THE VOLUNTARY FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS BY TAXPAYERS

¹Lukmanov Kaxramon
Abduraxmanovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Soliq va soliqqa tortish"
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi. **ORCID:** 0009-0008-6317-336X,
G-mail: kakhramonlukmanov@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishda ma'muriy yukni kamaytirish hamda markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasining ahamiyati tadqiq etilgan. O'zbekistonda 2020-yilgacha soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning turli davlat organlarida alohida va tarqoq shaklda yuritilishi natijasida bir xil hujjat va ma'lumotlarning takroran talab qilinishi, bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qo'shimcha vaqt va moliyaviy xarajatlarni yuzaga keltirishi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-sentabrdagi 539-son qarori asosida tashkil etilgan markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasining shakllanishi, yuritilish mexanizmi va idoralararo axborot almashinuvidagi o'rni yoritilgan. Mazkur bazaning soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan elektron xizmatlar sifatini oshirish, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni qisqartirish hamda soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarish uchun qulay shart-sharoit yaratishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida markaziy ma'lumotlar bazasini yanada takomillashtirish va soliq organlari hamda soliq to'lovchilar o'rtasidagi axborot almashinuvini samarali tashkil etishga qaratilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines the significance of reducing the administrative burden on taxpayers and the role of a centralized database in promoting the voluntary fulfillment of tax obligations. It analyzes the situation in Uzbekistan prior to 2020, when taxpayer information was maintained separately and in a fragmented manner by different government agencies, resulting in repeated requests for identical documents and information and, consequently, additional time and financial costs for business entities. The article also explores the formation, operational mechanism, and role in interagency information exchange of the centralized database established pursuant to Resolution No. 539 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated September 4, 2020. The study substantiates the importance of this database in improving tax administration, enhancing the quality of electronic services provided to taxpayers, reducing excessive administrative procedures, and creating favorable conditions for the voluntary fulfillment of tax obligations. Based on the research findings, conclusions and proposals are developed for the further improvement of the central database and for enhancing the efficiency of information exchange between tax authorities and taxpayers.

Kalit soʻzlar:

Keywords:

❖ *soliq ma'murchiligi, raqamli iqtisodiyot, ma'muriy yuk, elektron hukumat, davlat axborot resurslarini integratsiyalash, yagona identifikator (STIR, JSHSHIR), elektron soliq xizmatlari, risk-tahlil, Tax Administration 3.0.*

❖ *tax administration, digital economy, administrative burden, e-government, integration of state information resources, unified identifier (TIN, PINFL), electronic tax services, risk analysis, Tax Administration 3.0.*

Kirish.

Jahonda raqamli texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, global iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini shakllantirmoqda. UNCTAD baholariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning yillik o'sish sur'ati 10-12 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda. Shuningdek, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda raqamli xizmatlar va yechimlarga yo'naltirilgan yangi (greenfield) investitsiyalar hajmi 2020-2024-yillarda qariyb olti baravar oshgan [1].

Bu jarayonda soliq sohasi alohida o'rin tutadi. Soliq ma'murchiligi davlatning eng ma'lumotga bog'liq funksiyalaridan biri bo'lib, u bir vaqtning o'zida millionlab subyektlar, tranzaksiyalar va reestrlar bilan ishlaydi. Ayni shu sababli raqamli texnologiyalar soliq tizimida boshqa sohalarga nisbatan tezroq va chuqurroq joriy etilmoqda.

Raqamlashtirish soliq ma'murchiligiga bo'lgan qarashni ham o'zgartirdi. XX asr modelida asosiy e'tibor tekshiruv va javobgarlik choralariga qaratilgan edi. XXI asr modelida esa urg'u soliq to'lovchiga xizmat ko'rsatish, uning ma'muriy yukini kamaytirish va o'zaro ishonchni mustahkamlashga ko'chdi.

Ushbu yangi yondashuv Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Tax Administration 3.0 konsepsiyasida aniq ifodalangan. Kelajakda soliq jarayonlarini soliq to'lovchilarning kundalik hayoti va biznes jarayonlariga imkon qadar singdirish, soliqqa tortishni esa yanada uzluksiz va kamroq ma'muriy yuk tug'diradigan jarayonga aylantirish ko'zda tutiladi. Shu tariqa soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishni qo'llab-

quvvatlash zamonaviy soliq ma'muriyatchiligining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda [2].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Avstriyalik psixolog, iqtisodiy psixologiya sohasining taniqli olimi Erix Kirxlarning fikricha, vakolatli organlarga ishonch ixtiyoriy rioya etishni, nazorat kuchi esa majburiy rioya etishni kuchaytiradi. Olimning asosiy tavsiyasiga ko'ra, soliq idorasi jazolovchi va majburlovchi yondashuvdan xizmat ko'rsatish hamda mijozga yo'naltirilganlik mantig'iga o'tishi lozim. Shu bilan birga, E. Kirxler ishonchni nazorat kuchining o'rnini bosuvchi vosita deb hisoblamaydi. Uning fikricha, nazorat tizimi haddan tashqari bo'shashgan taqdirda ixtiyoriy rioya etish ham zaiflashishi mumkin. Shu bois soliq idorasi qonuniy, shaffof va oldindan bashorat qilinadigan nazoratni hurmatga asoslangan muomala bilan uyg'un holda qo'llashi darkor [3].

Tuleyn universiteti professori J. Alm va Kvinslend texnologiya universiteti tadqiqotchisi B. Torgler soliq ma'murchiligining uchta paradigmasini, ya'ni majburlov, xizmat ko'rsatish va ishonch paradigmasini ajratib ko'rsatganlar. Mualliflarning fikricha, faqat majburlovga tayangan strategiya oqilona boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin, ammo yakuniy nuqta bo'la olmaydi. Soliqdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash va aybdorlarni jazolash bilan cheklanish yetarli emas. Mazkur choralar soliq to'lovchiga ko'rsatiladigan xizmat sifati hamda uning ishonchi bilan to'ldirilishi shart. Ishonch paradigmasida tadqiqotchilar alohida bir jihatni ta'kidlaydilar: soliq ma'muriyati ishonchni nafaqat shakllantira oladi, balki o'z

qarorlari bilan soliq to'lovchilarning axloqiy motivatsiyasini ham susaytirishi mumkin [4].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda soliq tizimida joriy etilgan markaziy ma'lumotlar bazasi, uning ahamiyati va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, soliq ma'lumotlarini shakllantirishning soliq to'lovchiga ijobiy ta'siri atroflicha o'rganilgan. Tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan: tizimli tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya. Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar mavjud muammoni o'rganish, xolis xulosalar

chiqarish va asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son Qonunning 1-moddasi bilan tasdiqlanib, 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. U 2007-yil 25-dekabrda O'RQ-136-son Qonun bilan tasdiqlangan avvalgi kodeks o'rnida amal qila boshladi. Yangi hujjatning ishlab chiqilishi bir qator obyektiv ehtiyojlar bilan bog'liq bo'ldi [5]. Mazkur ehtiyojlar va ularga berilgan yechimlar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishiga asos bo'lgan omillar

Nº	Omil	Mavjud muammoning mazmuni	Yangi kodeksda ko'rilgan yechim
1	Me'yoriy bazaning murakkablashgani	2008-yildan amal qilgan kodeksga o'n yildan ortiq vaqt mobaynida ko'plab o'zgartirish kiritilib, hujjat hajmi kengaydi, ayrim normalar o'zaro muvofiqlashtirishni talab qiladigan holga keldi	Normalar tizimlashtirildi; soliq munosabatlarini kodeks doirasida tartibga solish tamoyili mustahkamlandi
2	Tartibga solishning tarqoqligi	Soliq munosabatlarining sezilarli qismi kodeks bilan emas, balki Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda idoraviy yo'riqnomalar orqali tartibga solinardi	Soliqqa oid qoidalar yagona hujjatda jamlandi
3	Konseptual asosning shakllanishi	2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son Farmon bilan tasdiqlangan Konsepsiyada soliq yukini kamaytirish va tizimni soddalashtirish vazifalari belgilandi	Konsepsiya talablari kodeks matnida o'z ifodasini topdi
4	Soliq rejimlari o'rtasidagi nomutanosiblik	Umumbelgilangan va soddalashtirilgan rejimlar o'rtasidagi sezilarli farq korxonalarining bo'linib ketishiga, QQS zanjirining uzilishiga olib kelardi	Rejimlar o'rtasidagi o'tish shartlari va teng raqobat sharoitlari aniqlashtirildi
5	Ish haqi fondiga tushadigan yuk	Majburiy to'lovlarning yuqoriligi daromadlarning to'liq rasmiylashtirilmasligiga ta'sir ko'rsatdi	2019-yildan JSHDS 12 foizli yagona stavkaga o'tkazildi, yagona ijtimoiy to'lov sezilarli kamaytirildi
6	Imtiyozlarning nazoratsiz ko'payishi	Turli hujjatlar asosida berilgan ko'p sonli imtiyozlar byudjet tushumlariga ta'sir ko'rsatib, yagona yondashuvni qiyinlashtirardi	Soliq imtiyozlari faqat Soliq kodeksi orqali taqdim etilishi qoidasi belgilandi
7	Xalqaro standartlarga moslashuv	Xorijiy investorlar uchun barqaror, shaffof va bashorat qilinadigan soliq tizimini shakllantirish zarurati	Soliq to'lovchi huquqlari, ko'ngilli rioya qilish, transfert narxlar va nazorat ostidagi xorijiy kompaniyalar institutlari mustahkamlandi

Umuman olganda, yangi Soliq kodeksi soliq tizimini soddalashtirish, uning

shaffofligini oshirish va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay huquqiy sharoit yaratishga


qaratilgan muhim hujjat sifatida qabul qilindi. Kodeks normalarini amalda to'liq joriy etish uchun esa soliq organlarida soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq qamrab oladigan yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Ushbu vazifaning huquqiy va texnik asosi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-sentabrdagi 539-son qarori bilan belgilandi. Qaror yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxona, filial va doimiy

muassasalari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risidagi yagona markazlashtirilgan axborot manbaini shakllantirishni nazarda tutadi [6].

Ilgari korxona to'g'risidagi ma'lumotlar har bir idorada alohida yuritilar edi. Ro'yxatdan o'tkazishga oid ma'lumotlar bir idorada, soliqqa oid ma'lumotlar boshqasida, bank rekvizitlari esa uchinchisida saqlanardi. Qaror ana shu tarqoqlikni bartaraf etib, barcha ma'lumotlarni bitta markaziy bazada jamlashni ko'zda tutadi.

1 MA'LUMOT MANBALARI – Davlat idoralari



1-rasm. Markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasining umumiy modeli

Baza soliq organlarining mavjud axborot-resurs bazasi negizida shakllantiriladi. Uni yuritish bo'yicha vakolatli organ etib Soliq qo'mitasi belgilandi. Shu tariqa soliq organi biznes sektori to'g'risidagi davlat ma'lumotlarining yagona va ishonchli manbai maqomiga ega bo'ladi.

Bazani shakllantirish uchun Adliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Markaziy bank,

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markazi, Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, Milliy statistika qo'mitasi, Davergeodezskadastr va Bojxona qo'mitasining ma'lumotlar bazalari integratsiya qilindi. Natijada 100 dan ortiq ma'lumotnoma va ma'lumotlar bazasida saqlanadigan hamda qayta ishlanadigan ma'lumotlar belgilandi [6].

Qarorga ko'ra, idoralararo axborot almashinuvida ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha yetakchi organ Davlat xizmatlari agentligi bo'lib, uning hissasiga 110 ta rekvizitdan 83 tasi (75,5 foiz) to'g'ri keladi. Ma'lumotlarni yangilash bo'yicha yetakchi o'rinni esa 70 ta rekvizit (63,6 foiz) bilan Soliq qo'mitasi egallaydi. Boshqacha aytganda, subyekt to'g'risidagi ma'lumot ro'yxatga olish organida "tug'iladi", soliq organida esa "yashaydi" [6].

Shu bilan birga, qaror davlat xizmatlari ko'rsatishda jismoniy va yuridik shaxslardan markaziy ma'lumotlar bazasida yoki vakolatli organlarning axborot resurslarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni talab qilishni taqiqlaydi. Idoralar zarur axborotni idoralararo elektron o'zaro hamkorlik tartibida mustaqil ravishda oladi. Aynan ushbu norma soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishning huquqiy mexanizmi hisoblanadi. Bunda har bir idora o'z ma'lumotlarini bazaga kiritadi va muntazam yangilab boradi, boshqa idoralar esa ulardan idoralararo integratsiya platformasi orqali foydalanadi. Natijada yagona resursda jamlangan axborot ham soliq ma'muriyatchiligi, ham tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish ehtiyojlarini birdek qondiradi [6].

Markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi to'liq shakllantirilgandan so'ng unda 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 520 mingga yaqin yuridik shaxs, 1,2 million o'zini o'zi band qilgan shaxs hamda 200 mingdan ortiq yakka tartibdagi tadbirkor qayd etilgan edi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra esa ushbu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 600 mingdan ortiq yuridik shaxs, 5 milliondan ziyod o'zini o'zi band qilgan shaxs va 380 mingdan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorni tashkil etdi [7].

Respublika miqyosidagi ushbu yirik bazaning ma'lumotlari real vaqt rejimida yangilanib, doimiy ravishda dolzarb holatda saqlanadi. Mazkur resurs soliq organlariga quyidagi imkoniyatlarni yaratdi.

1. Yuridik shaxslar uchun STIR, jismoniy shaxslar uchun JSHSHIR asosiy identifikator sifatida qabul qilindi. Bu idoralararo elektron o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. Ushbu yondashuv ilgari har bir idora o'z raqami yoki kodini qo'llaganidan kelib chiqqan takroriy yozuvlar va nomuvofiqliklarni sezilarli darajada kamaytirdi. Natijada har bir soliq to'lovchi bo'yicha ishonchli bazaviy ma'lumotlar to'plamini shakllantirish imkoni tug'ildi.

2. Ilgari subyekt to'g'risidagi ma'lumotlar bir nechta reestrda tarqoq holda saqlanar edi. Hozirda yagona subyekt kartasida 110 ga yaqin maydon jamlandi. Jumladan, ro'yxatga olish ma'lumotlari, tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shakli, IFUT hamda MHOBT kodlari, faoliyat holati, tugatish yoki faoliyatni to'xtatish sababi, soliq rejimi, QQS to'lovchi raqami, soliq to'lovchi toifasi, ustav fondi, manzillar, rahbar, muassis va bosh hisobchi to'g'risidagi ma'lumotlar, bank rekvizitlari hamda xodimlar soni.

3. Bazani axborot bilan ta'minlashda idoralar o'z vakolat doirasida ishtirok eta boshladi. Jumladan, Adliya vazirligi nodavlat notijorat tashkilotlari, advokatlik byurolari va firmalari bo'yicha, Markaziy bank banklar, kredit byurolari hamda xorijiy banklar vakolatxonalari bo'yicha, Tashqi ishlar vazirligi diplomatik vakolatxonalari va xalqaro tashkilotlar bo'yicha, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi xorijiy tijorat tashkilotlari vakolatxonalari bo'yicha ma'lumot uzatadi. Davlat xizmatlari agentligi, Milliy statistika qo'mitasi, Davergeodezkadastr hamda Davlat personallashtirish markazi ham ushbu jarayonda o'z bazalarida yig'ilgan ma'lumotlarning yagona nuqtada real vaqt rejimida dolzarb saqlanishini ta'minlay boshladi.

4. Soliq organlarida "Markaziy ma'lumotlar bazasi" axborot tizimi joriy etildi. Ushbu tizim bilan integratsiya qilinishi soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini hisobga

olishga mo'ljallangan 20 dan ortiq ichki axborot tizimini ishga tushirishga xizmat qildi.

5. Ma'lumotlar faqat "Elektron hukumatning ma'lumotnomalar va klassifikatorlar registri"ga kiritilgan tasniflagichlar asosida shakllantiriladi. Aynan shu yondashuv tahlil va solishtiruv ishlarini texnik jihatdan amalga oshirish imkonini berdi. Xususan, risk-tahlili, tarmoqlar kesimida monitoring yuritish va shubhali korxonalarni aniqlash shu negizda yo'lga qo'yildi.

O'z navbatida, soliq to'lovchilar uchun mazkur ma'lumotlar bazasi quyidagi imkoniyatlarni yaratdi.

1. Davlat xizmatlari ko'rsatishda jismoniy va yuridik shaxslardan Markaziy ma'lumotlar bazasida yoki vakolatli organlarning axborot resurslarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni talab etish taqiqlandi. Idoralar zarur axborotni idoralararo elektron o'zaro hamkorlik tartibida mustaqil ravishda ola boshladi. Boshqacha aytganda, "guvohnoma nusxasini olib keling" yoki "STIR to'g'risida ma'lumotnoma taqdim eting" kabi talablar huquqiy asosini yo'qotdi. Bu esa soliq to'lovchining ortiqcha ovoragarchiligini bartaraf etdi.

2. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchli, to'liq va dolzarb bo'lishi, ularning ishonchliligi, to'liqligi hamda dolzarbligi uchun javobgarlik ma'lumotni kiritgan vakolatli organga yuklanadi.

3. Elektron soliq xizmatlarining, shu jumladan mobil ilova orqali ko'rsatilayotganlarining sifati hamda soni sezilarli darajada oshdi. Jumladan, elektron soliq xizmatlari portalida 4 turdagi shaxsiy kabinet faoliyat yuritishi yo'lga qo'yildi. Ushbu kabinetlarda 60 dan ortiq elektron xizmat ko'rsatila boshlandi. Bundan tashqari, "Soliq" mobil ilovasida 30 dan ortiq elektron xizmat joriy etildi. Mazkur chora-tadbirlar davlat budjeti tushumlarining ortishiga hamda soliq to'lovchilar tomonidan soliq

majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishiga zamin yaratdi.

Xulosa va takliflar.

Markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasini yanada takomillashtirish hamda soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

1. Soliq organlari faoliyatiga va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish zarur. Bu risk-tahlilni chuqurlashtirish, murojaatlarni avtomatik qayta ishlash hamda soliq majburiyatlarini oldindan baholash imkonini beradi.

2. Xizmatlarni proaktiv va kompozit shaklda ko'rsatishga bosqichma-bosqich o'tish lozim. Proaktiv yondashuvda soliq to'lovchi murojaat qilishini kutmasdan, tizimning o'zi unga tegishli xizmatni taklif etadi. Kompozit shaklda esa bir nechta idoraga tegishli xizmatlar yagona murojaat doirasida ko'rsatiladi.

3. Kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish tizimini mustahkamlash. Bunda elektron xizmatlardan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoyalash, ruqsatsiz kirish va kiberhujumlarga qarshi samarali choralar ko'rish, shuningdek ma'lumotlarni shifrlash va xavfsiz autentifikatsiya mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

4. Kelgusida milliy soliq tizimini IHTTning "Soliq ma'muriyatchiligi 3.0" (Tax Administration 3.0) konsepsiyasi asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq. Markazlashtirilgan baza orqali erishilgan ma'lumotlar yaxlitligi ushbu o'tishning zarur sharti hisoblanadi, zero soliq jarayonlarini tadbirkorning ish muhitiga singdirish faqat ishonchli, to'liq va dolzarb axborot bazasi mavjud bo'lgandagina mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). World Investment Report 2025: International Investment in the Digital Economy. – Geneva; New York: United Nations, 2025. – P. 171, 195. – 274 p. – ISBN 978-92-1-003558-3.
2. OECD. Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration. – Paris: OECD Publishing, 2020. – P. 10-13. – 73 p. – DOI: 10.1787/ca274cc5-en.
3. Kirchler E. The Economic Psychology of Tax Behaviour. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 200-204. – 264 p. – DOI: 10.1017/CBO9780511628238.
4. Alm J., Torgler B. Do Ethics Matter? Tax Compliance and Morality // Journal of Business Ethics. – 2011. – Vol. 101, No. 4. – P. 635-651. – DOI: 10.1007/s10551-011-0761-9.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida: 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son. – 1-modda. – URL: <https://lex.uz/docs/4674011>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: 2020-yil 4-sentabrda 539-son qaror. – 1-2-bandlar; 1-ilova. – URL: <https://lex.uz/docs/4980337>
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. "Fiskal tahlil" rasmiy Telegram kanali. – URL: <https://t.me/fiskaltahlil>